

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**QO‘LYOZMALARNI O‘QISH VA TALQIN QILISH AMALIYOTI**  
**FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200000 – San‘at va gumanitar fanlar

**Ta‘lim sohasi:** 220000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)

**Mutaxassislik:** 70220503 – Tasavvuf germenevtikasi


**TOSHKENT – 2025**

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:




Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrası mudiri:



Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i



Yuldashev M.M.

Fan/modul kodi QO'TQA1206	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish amaliyoti	72	108	180
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga tasavvuf tarixi, nazariyasi, falsafasi va adabiyotiga oid arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratilgan qo'lyozma manbalarning ishonchligini aniqlash, ularning ilmiy qiymati va tarixiy ahamiyatini belgilash, tasavvufiy qo'lyozmalarni o'qish, o'rganish, tahlil va tadqiq etish, tasniflash va tavsiflash, turli nusxalarni qiyosiy o'rgangan holda asarning ilmiy-tanqidiy nashrini tayyorlash va ilmiy muomalaga kiritishni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tasavvufiy qo'lyozma asarlarni o'qishni o'rgatish;</li> <li>- tasavvufiy qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq etish;</li> <li>- tasavvufiy qo'lyozmalarning ichonchligini aniqlash va ilmiy qiymatini belgilash;</li> <li>- tasavvufiy qo'lyozmalarning tavsifiy katalogini yaratish;</li> <li>- tasavvufiy qo'lyozmalarning turli nusxa va variantlarini qiyosiy o'rganish va ilmiy-tanqidiy nashrni amalga oshirishdan iborat.</li> </ul> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 ta ro'yxatga kiruvchi ) <b>Leiden universiteti</b> (ARWU 111) xorijiy tajribasini inobat olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1">https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1</a></p>			

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu: "Tasavvufiy qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish amaliyoti" fanining maqsad va vazifalari**

Fanni o'qitishdan maqsad. Manbalari, ularda yoritilgan masalalar, muammolar, nazariyalar, g'oyalar, tushunchalar, istilohlar fanning ob'yekti hisoblanadi. Germenevtik metodologiya vositasida tasavvuf ta'limotini tushunish va tushuntirish, falsafiy dunyoqarashni shakllantirish

Fanning vazifalari: Dasturda talabalarning bakalavriatda olgan bilimlari, o'tilgan darslar va ularning mazmun-mundariyasi hisobga olindi. Amaliy mashg'ulot mavzulari shakl jihatdan bakalavriatdagi dars mavzulariga o'xshasa-da, bu borada magistrant talabalarning diqqati mavzuga oid qo'lyozma asarlarni tabdil, tarjima qilish va manbashunos olimlar tomonidan yaratilgan nazariy manbalarni yanada chuqurroq, ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga qaratiladi. Bu magistrantlarga aynan o'sha tildagi asosiy manbalarni tadqiq va tahlil etish imkoniyatini beradi.

#### **2-mavzu: "Tasavvufiy qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish amaliyoti" fanining metodologik asoslari**

"Tasavvufiy qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish amaliyoti" fanining o'ziga xos metodologiyaga ega ekanligi. Bu metodologiya asosan empirik-amaliy xarakterga ega ekanligi. Unda diqqat, e'tibor, yozuv uslubini sinch-kovlik bilan ko'zdan kechirish va xotirada saqlash, asar tili, matn mazmuni va unda ishlatilgan atamalar bilan oldindan oshno bo'lishning muhimligi, avval ichda o'qish, so'ng ovoz bilan o'qib takrorlash usullarining natija berishi, matni daftarga ko'cherish orqali uning mazmunini xotirada mustahkam saqlash imkonini yaratishi.

#### **3-mavzu: Fors-tojik tilidagi tasavvufiy qo'lyozma asarlarni o'qish, tavsiflash va talqin qilish metodikasi**

"Tasavvufiy qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish amaliyoti" fanida fors-tojik tilida bitilgan qo'lyozma nusxalarni o'qish va talqin qilish metodikasining muhimligi. Bu metodika amaliyot va tajriba bilan bog'liqligi. Til va yozuvni yaxshi bilish zarurligi, xotiraning mustahkamligi asosiy rol o'ynashi, matn mazmuni bilan ma'lum darajada

oldindan ogoh bo'lish zarurligi, eng muhimi, tasavvuf istilohlari va mazmunlari haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lish zarurligi.

Tasavvufiy qo'lyozmalarni tavsiflashda asosan ishonchli manbalarni tanlash va ularning asosiy belgilari haqida zarur ma'lumotlarni berish. Qo'lyozmalarni talqin qilishda asosan qiyosiy metodikadan foydalanish.

#### **4-mavzu: Ko'p nusxali qo'lyozma asarlar bilan ishlash**

Ko'p nusxali qo'lyozma asarlar bilan ishlashning mushkulligi. Zero turli nusxalarda turlicha variantlar hosil bo'lishi ehtimoli borligi. Natijada bu matnni tushinishda chalkashlikka olib borishi mumkinligi. Bu chalkashlikka barham berish uchun barcha nusxalarni kdiqqat bilan ko'zdan kechi-rish kerakligi. Variantlarni qiyoslab, bir xil bo'lgan holatlarni to'g'ri variant sifatida qabul qilish lozimligi.

#### **5-mavzu: Nodir nusxali qo'lyozma asarlar bilan ishlash**

Nodir nusxa ustida ishlashning o'ta nozik va murakkab jarayon ekanligi. Bunda tozalik, ehtiyotkorlik, diqqat va e'tiborni ko'proq talab qilinishi. Nodir qo'lyozma nusxani avaylab olish, ushlab va varoqlash zarurli-gi. Uning varoqlarini yirtish, chizish, buklash mutlaqo mumkin emasligini anglash zarurligi. Imkoni boricha uni zarrabin yordamida mutolaa qilish lozimligi.

#### **6-mavzu: Tasavvuf tarixiga oid qo'lyozma nusxalarni o'qish**

##### **va talqin qilish**

Tasavvuf tarixiga oid qo'lyozma nusxalarni o'qish va talqin qilishning o'ziga xosligi. Tarxiy lavhalar, voqealar haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun tarixga oid bilim va tasavvurlarga ega bo'lish zarurligi. Tarixiy joy-lar va tarixiy shaxslarning nomi tanish bo'lishi matnni to'g'ri va tezroq o'qilishiga yordam berishi.

#### **7-mavzu: Jomiyning "Nafahot ul-uns" asari**

Mavlono Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazarot il-quds" asarining tasavvuf tarixiga oid eng mukammal ma'lumot berguvchi manbalardan biri ekanligi. Bu asar Jomiyning tasavvuf tarixiga oid shoh asari ekanligi. Unda 600 dan ko'proq tasavvuf shayxlari va so'fiya ayollar haqida "Tazkirat ul-avliyo"ga nisbatan mukammalroq ma'lumot berilganligi. "Nafahot..."da Xojagon-Naqshbandiya pirlari va shayxlari

haqida qimmatli ma'lumotlar berilgani. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari aslida "Nafahot..."ning erkin tarjimasini ekanligi, ammo Navoiy unga yangi ma'lumotlarni qo'shgan. "Nafahot..." butun islom olamida tasavvuf tarixiga oid mu'tabar manba sifatida tan olinganligi. Ushbu asarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari ko'p ekanligi. Ammo eng ishonchli nusxasi Jomiyning OzFA Sharqshunoslik instituti QF da saqlanayotgan Jomiy "Kulliyot"i tarkibida ekanligi.

#### **8-mavzu: Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari**

Buyuk mutasavvif shoir, mutafakkir va tazkiranavis Fariduddin Attorning ushbu asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo'lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoullohlarning hayoti, kashfu karomatlari, turli tasavvufiy istilohlar va shariat, tariqat, ma'rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukr kabilarga ularning qarashlari bayon etilgan.

Tazkiramda allomalarning o'z ilmiy-nazariy qarashlari va ta'limotini asoslash, tasdiqlash maqsadida tarixiy voqealar, hayotiy tajriba, o'tmish mashoyixlarining ibratli kechmishlari hikoya, masal va naqlar bilan tasnif etilgan. Kitobdan o'rin olgan tarixiy lavhalar juda jonli va ta'sirchanligi bilan asarni yuksak badiiy ijod namunasini darajasiga ko'targan. Ushbu asar tarixiy manbadan ko'ra badiiy asar sifatida qimmatli hamda tasavvuf tarixi va nazariyasi, amaliyotini o'rganishda juda katta ahamiyatga ega.

#### **9-mavzu: Mustamliy Buxoriyning "Sharhi at-ta'arruf" asari**

X asrdan boshlab fors-tojik tilida ko'plab falsafiy-irfonoy asarlar bitilgan. Mustamliy Buxoriyning "Sharhi at-ta'arruf" mazhab it-tasavvuf" asari ilk namunalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarning bir necha nusxasi Eron va boshqa mamlakatlarning yirik kutubxonalarida saqlanadi.

#### **10-mavzu: Ali Safiyning "Rashahot ayn ul-hayot" asari**

Faxruddin Aliy Safiy asarlari, xususan, uning «Rashahot aynu-l-hayot» («Hayot bulog'i tomchilari») asarida yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonni tarbiyalash, yoshlarni sog'lom e'tiqod va ma'rifat orqali keng fikr-mulohaza va tafakkurga, pok axloqqa targ'ib qilish g'oyalari o'z ifodasini topgan. SHu nuqtai nazardan, shoir va olimning ilmiy-adabiy merosini tadqiq etish, tasavvufiy mavzuni qanday, qaysi manbalar

asosida yoritgani, e'tiqodining asosini, ichki dunyosining mazmun-mohiyatini un-ing badiiy va diniy asarlari asosida ochib berish dolzarbdir.

### **11-mavzu: Tasavvuf falsafasiga oid qo'lyozma nusxalarni**

#### **o'qish va talqin qilish**

Qo'lyozma asarlarni o'qish va talqin qilish tajribasida tasavvuf falsafasi – Irfonga oid asarlarni o'qish eng murakkab jarayonlardan hisobla-nadi. Ntgaki, bunday asarlarning tili juda murakkab bo'ladi, ularda arab-cha atamalar haddan tashqari ko'p ishlatiladi. Buning uchun qo'lyozma o'qishdan oldin irfoniy istilohlar bilan oshno bo'lish lozim. Bunday as-arlar ko'pincha nasx va nasta'liq yozuvlarida kitobat qilingan bo'ladi.

### **12-mavzu: Jomiyning “Sharhi ruboiyot” asari**

“Sharhi ruboiyot fi isboti vahdat ul-vujud” Jomiyning o'z falsafiy-irfoniy ruboiylariga bitgan irfoniy sharh- asari ekanligi, bu asar Navoiy xohishiga binoan Vahdat ul-vujud falsafasi sharhida yozilganligi. Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari Eron, Hindiston, Pokiston va Turkiya milliy kutubxonalarida saqlanishi, ammo eng ishonchli nusxasi Jomiyning OzFA Sharqshunoslik institute QF da saqlanayotgan Jomiy “Kulliyot”idan joy olganligi.

### **13-mavzu: Jomiyning “Ashi'at ul-Lama'ot” asari**

“Ashi'at ul-Lama'ot” Mavlono Jomiyning Faxriddin Iroqiy “Lama'ot” asariga yozgan irfoniy sharhi ekanligi. Bu asar ham Tajalliy, Ilohiy ishq va Vahdat ul-vujud mavzuda yozilganligi. Bu asar ham Navoiy xohishi bilan yozilgan bo'lishi ehtimoli borligi. Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari Eron, Hindiston, Pokiston va Turkiya milliy kutubxonalarida saqlanishi, ammo eng ishonchli nusxasi Jomiyning OzFA Sharqshunoslik instituti QF da saqlanayotgan Jomiy “Kulliyot”idan joy olganligi.

Bu asarning qo'lyozma nusxalari O'zRFA SHI H.Sulaymonov nomidagi QX №1792 va №1331 raqamlari ostida saqlanishi.

### **14-mavzu: Aziziddin Nasafiyning “Insoni Komil” asari**

Aziziddin Nasafiyning “Insoni Komil” asari tasavvuf falsafasida muhim o'rin tutgan “komil Inson” g'oyasiga asoslangan falsafiy-irfoniy asa-

ridir. Ushbu asar fors-tojik tilida balogʻat va fashohat darajasida yozilgan. Ushbu asar bugungi kunda oʻzining ilmiy va amaliy ahamiyatini yoʻqotmagan.

#### **15-mavzu: Ahmad Sarhindiyning “Maktubot” asari**

Imom Rabboniy nomi bilan shuhrat qozongan Ahmad Sarhindiyning Hindistona forsiy tilda yozilgan asari asosan shariat va tariqat oʻrtasidagi bahs-munozaralarga chek qoʻyish va tariqatni qaytadan shariat bilan chambarchas bogʻlash maqsadida yozilgan. Naqshbandiya tarkibida Hindistonda “Mujaddidiya” nomli silsilaga asos solgan Imom Rabboniy “Mu-jaddidi alfi soniy” laqabi bilfn hfm mashhur. Bu asarning qoʻlyozma va toshbosma nusxalari haligacha koʻp.

#### **16-mavzu: Tasavvufiy-badiiy qoʻlyozma nusxalarni oʻqish**

##### **va talqin qilish**

Tasavvufiy-badiiy qoʻlyozma nusxalarni oʻqish va talqin qilish muammolari. Tasavvufiy-badiiy qoʻlyozma asarlarning til muammosi. Tasavvufiy-badiiy qoʻlyozma asarlarda badiiy uslub muammosi. Tasavvufiy-badiiy qoʻlyozma asarlarda yozuvi masalasi. Forsiy tildagi tasavvufiy-badiiy qoʻlyozmalarning koʻproq nastaʻliq va shikasta yozuvlari oraligʻida kitobat qilinganligi;

#### **17-mavzu: Hofiz Sheroziy “Devon”-i**

Hofiz Sheroziy irfoniy mazmundagi gʻazallaridan tarkib topgan “Devon”ning qoʻlyozma va toshbosma nusxalarining Markaziy Osiyoda koʻp tarqalganligi. Hofiz Sheroziy gʻazalarining til, badiiy uslub va yozuv masa-lasi. Hofiz gʻazallarida Qurʻoni karim oyatlari, arabcha matnlarni toʻgʻri oʻqish va tushunish muammosi. Hofiz Sheroziy “Devon”i qoʻlyozmalarning koʻproq nastaʻliq va shikasta yozuvlari oraligʻidagi tarzda kitobat qilinganligi.

#### **18-mavzu: Mavlono Jomiy “Devon”-i**

Mavlono Abdurahmon Jomiyning uch qismdan iborat devoni: “Fotihat ush-shabob”, “Vositat ul-iqd”, “Xotimat ul-hayot”. Jomiyning asosan ishqiyy-irfoniy mazmundagi gʻazallaridan tarkib topgan devonlarining tasavvufiy adabiyotga tegishliligi. Ularni oʻqish va tushuntirib berishdagi muammolar: til va badiiy uslub, maʼnolar teranligi, tasavvufiy-majoziy istilohlar va

tushunchalarning ko'pligi. Kitobat qilingan nusxalarning ko'pligi.III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Tasavvufiy qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish amaliyoti" fanining maqsad va vazifalari
2. "Tasavvufiy qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish amaliyoti" fanining metodologik asoslari
3. Fors-tojik tilidagi tasavvufiy qo'lyozma asarlarni o'qish, tavsiflash va talqin qilish metodikasi
4. Ko'p nusxali qo'lyozma asarlar bilan ishlash
5. Nodir nusxali qo'lyozma asarlar bilan ishlash
6. Tasavvuf tarixiga oid qo'lyozma nusxalarni o'qish va talqin qilish
7. Jomiyning "Nafahot ul-uns" asari qo'lyozma nusxalari
8. Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari qo'lyozma nusxalari
9. Mustamliyning "Sharhi at-ta'arruf..." asari qo'lyozma nusxalari
10. Ali Safiyning "Rashahot ayn ul-hayot" asari qo'lyozma nusxalari
11. Tasavvuf falsafasiga oid qo'lyozma nusxalarni o'qish, tavsiflash va talqin qilish
12. Jomiyning "Sharhi ruboiyot" asari qo'lyozma nusxalari .
13. Jomiyning "Ashi'at ul-Lama'ot" asari qo'lyozma nusxalari
14. Aziziddin Nasafiyning "Insoni Kamil" asari.
15. Ahmad Sarhindiyning "Maktubot" asari qo'lyozma nusxalari
16. Tasavvufiy-badiiy qo'lyozma nusxalarni o'qish, tavsiflash va talqin qilish
17. Hofiz Sheroziy "Devon"-i qo'lyozma nusxalari
18. Mavlono Jomiy "Devon"-i qo'lyozma nusxalari

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar dars jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarni keyslar va organayzerlar orqali bajarish natijasida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o‘tilgan mavzuni chuqur o‘rganishlari uchun darslik, o‘quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta’limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishini bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta’rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;

**“Qo‘lyozmalarni o‘qish va talqin qilish amaliyoti” fanidan mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Qo‘lyozma kitobning tuzilishi.
2. O‘rta Osiyoda kitobat tarixiga oid ilmiy adabiyotlar.
3. Arab tilidagi manbalar: bibliografiyasi.
4. Fors tilidagi manbalar: bibliografiyasi.
5. Turkiy tildagi manbalar: bibliografik asarlar.
6. “Tasavvufiy qo‘lyozmalarni o‘qish va talqin qilish amaliyoti” fanining maqsad va vazifalari.
7. “Tasavvufiy qo‘lyozmalarni o‘qish va talqin qilish amaliyoti” fanining metodologik asoslari.
8. Fors-tojik tilidagi tasavvufiy qo‘lyozma asarlarni o‘qish, tavsiflash va talqin qilish metodikasi.
9. Ko‘p nusxali qo‘lyozma asarlar bilan ishlash.
10. Nodir nusxali qo‘lyozma asarlar bilan ishlash.
11. Tasavvuf tarixiga oid qo‘lyozma nusxalarni o‘qish va talqin qilish.

12. Jomiyning “Nafahot ul-uns” asari qo‘lyozma nusxalari.
13. Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asari qo‘lyozma nusxalari.
14. Mustamliyning “Sharhi at-ta’arruf...” asari qo‘lyozma nusxalari.
15. Ali Safiyning “Rashahot ayn ul-hayot” asari qo‘lyozma nusxalari.
16. Tasavvuf falsafasiga oid qo‘lyozma nusxalarni o‘qish, tavsiflash va talqin qilish.
17. Jomiyning “Sharhi ruboiyot” asari qo‘lyozma nusxalari.
18. Jomiyning “Ashi’at ul-Lama’ot” asari qo‘lyozma nusxalari.
19. Aziziddin Nasafiyning “Insoni Komil” asari qo‘lyozma nusxalari.
20. Ahmad Sarhindiyning “Maktubot” asari qo‘lyozma nusxalari.
21. Tasavvufiy-badiiy qo‘lyozma nusxalarni o‘qish, tavsiflash va talqin qilish
22. Hofiz Sheroziy “Devon”-i qo‘lyozma nusxalari.
23. Mavlono Jomiy “Devon”-i qo‘lyozma nusxalari.
24. Shayx Sa’diy “Guliston”i qo‘lyozma nusxalari
25. Jomiy “Bahoriston”i qo‘lyozma nusxalari.
26. “Devoni Foni” qo‘lyozma nusxalari.
27. Jomiy “Kulliyot”i qo‘lyozma nusxalari.
28. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari qo‘lyozma nusxalari.
29. Sayri suluk odobiga oid qo‘lyozma asarlarni o‘qish metodikasi
30. Xoja Muhammad Porso. “Risolai qudsiya” asari qo‘lyozma nusxalari.
31. Qo‘lyozma nusxadagi hoshiya matnlarni o‘qish.
32. Qo‘lyozma nusxa matnini ovozsiz (ichda) o‘qish.
33. Qo‘lyozma nusxa matnini ovoz bilan o‘qish
34. Qo‘lyozma nusxa matnini tarjima qilish.
35. Qo‘lyozma nusxa matnidan ko‘chirish.
36. Arab tilidagi tasavvufiy qo‘lyozma asarlarni o‘qish, tavsiflash va talqin qilish metodikasi
37. Tasavvuf tarixiga oid qo‘lyozma nusxalarni o‘qish, tavsiflash va talqin qilish.
38. Sulamiyning “Tabaqot us-so‘fiya” asari qo‘lyozma nusxalari.
39. Abu Nasr Sarrojnning “Al-Luma’ fit-tasavvuf” asari qo‘lyozma nusxalari.
40. “Risolai Qushayriya” asari qo‘lyozma nusxalari.
41. Turkiy (o‘zbek) tilidagi tasavvufiy qo‘lyozma asarlarni o‘qish, tavsiflash va talqin qilish metodikasi
42. Tasavvuf tarixiga oid qo‘lyozma nusxalarni o‘qish, tavsiflash va talqin qilish

	<p>43. Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari qo‘lyozma nusxalari. 44. Mashrab “Devon”i qo‘lyozma nusxalari.</p> <p>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b> <i>Talaba bilishi kerak:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- arab va fors-tojik tillarini bilishi, tasavvufning asosiy tushuncha va masalalari, qo‘lyozma asarlar, tasavvufiy qo‘lyozmalarining ilmiy-tarixiy qiymati haqida bilishi kerak;</li> <li>- tasavvufiy qo‘lyozma asarlarni arab va fors-tojik tillarida o‘qiy olish, tasavvufiy qo‘lyozmalarni matnlarni tushunish, tasavvufiy qo‘lyozmalarining ichonchililigini aniqlash va ilmiy qiymatini belgilash, mustaqil fikrlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini hosil qilishi;</li> <li>- tasavvufiy qo‘lyozmalarini tarjima qilish va izohlash, Tasavvufiy qo‘lyozmalarining tavsifiy katalogini yaratish, tasavvufiy qo‘lyozmalarining turli nusxa va variantlarini qiyosiy o‘rganish va ilmiy-tanqidiy nashrni amalga oshirish, tasavvufiy qo‘lyozmalarini o‘rganishda ob‘ektiv metodologik yondoshuv malakalarini hosil qilishi lozim.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg‘ulotlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, mustaqil ta’lim bo‘yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish va/yoki og‘zaki imtihonni topshirish.</p>

6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p>
1.	Komilov, Najmiddin. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”, “O‘zbekiston”, 2009.
2.	H.Комилов. Тафаккур карвонлари. Шарқу Фарбнииг цивилизациявий алоқалари. – Т. “Шарк”, 2011.
3.	Мухаммадходжаев А. Гносеология суфизма. – Душанбе: Дониш - 1990. –116 с.
4.	Xolmo‘minov, Ja’far. Jomiy va vahdat ul-vujud ta’limoti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
5.	Xolmo‘minov, Ja’far. Tasavvuf falsafasi. 1-qism: Tasavvuf ontologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 276 b.
6.	Xolmo‘minov, Ja’far. Qiyosiy tasavvufshunoslik.– T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 266 b.
7.	Xolmo‘minov, Ja’far. Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta’limoti. – T.: “Tafakkur”, 2020. – 374 b.
8.	Xolmo‘minov, Ja’far. Tasavvuf ontologiyasi. (Monografiya). – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 190 b.
9.	Раҳимов К. Мовароуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII – XI асрлар). – Тошкент: “Академнашр”, 2020. – 400.
10.	Раҳимов К. Хожагон-нақшбаидия тарикати ва етти пир. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 168.

### Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
4. Hoja Abdulxoliq G‘ijduvoni. Maqomoti Hoja Yusuf Hamadoni. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.
5. Hoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. 2.Risolai volidiyya. / Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahridin Umrzoq, Hamidulloh Amin. – T.: “Adolat”, 2004.
6. Рахимов К. Тарикат Хваджаган-Накшбандийа и семь пиров. – Болгар: ИД “Меддок”, 2020. – 180 с.
7. Рахимов К. Золотая силсила: тарикат Хваджаган-Накшбандийа и семь пиров. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 524.
8. Рахимов К. Хваджа Абдулхалик Гиждувани. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 204.
9. Рахимов К. Хваджа Мухаммад Ариф Ривгари. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 176.
10. Рахимов К. Хваджа Махмуд Анджирфагнави. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 124
11. Рахимов К. Хваджа Али Рамитани. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 164.
12. Рахимов К. Хваджа Мухаммад Баба Самаси. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 124.
13. Рахимов К. Сайинд Амир Кулал. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 136.
14. Рахимов К. Хваджа Бахауддин Накшбанд. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 176.
15. Хожа Абдухолик Гиждувоний. Васиятнома. Форс тилидан таржима, кириш, тадқиқ, изоҳлар, иловалар муаллифи ва нашрга тайёрловчи: Комилжон Рахимов. – Тошкент, “Splendid Idea”, 2021. – 204.
16. Хваджа Абдулхалик Гиждувани. Васийаг-нама. Автор перевода с персидского, предисловия, научных комментариев, примечаний и приложений, подготовка текста к публикации: Камилъджан Рахимов. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 208.
17. Хожа Мухаммад Ориф Ревгарий. Орифиома. Форс тилидан таржима, кириш, тадқиқ, изоҳлар, иловалар муаллифи ва нашрга тайёрловчи: Комилжон Рахимов. – Тошкент, “Splendid Idea”, 2021. – 144.
18. Хваджа Мухаммад Ариф Ривгари. Ариф-нама. Автор перевода с персидского, предисловия, научных комментариев, примечаний и приложений, подготовка текста к публикации: Камилъджан Рахимов. – Ташкент, “Splendid Idea”, 2021. – 144.
19. Хожа Али Ромитаний. Рисолаи Ҳазрати Азизон. Форс тилидан таржима, кириш, тадқиқ, изоҳлар, иловалар муаллифи ва нашрга тайёрловчи: Комилжон Рахимов. – Тошкент, “Splendid Idea”, 2021. –

7.	<p>Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 20-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p><b>Rahimov K.</b> – TDSHU "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası dotsenti, t.f.d. (DSc);</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Jasur Sulaymonov</b> – falsafa fanlari b.f. doktori (PhD), dotsent, TDSHU "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası mudiri;</p> <p><b>Nasriddin Mirzayev</b> – O'zbekiston milliy arxivida katta ilmiy xodim, tarix fanlari b.f. doktori (PhD)</p>

Jeff